



## THE HISTORY OF THE ORIGIN AND FORMATION OF THE UZBEK PEOPLE

**S. T. Zoirov**

*lecturer*

*Tashkent Military Academic Lyceum "School of Temurbeks"*  
*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Uzbek, Amu Darya, Syrdarya, Qang, Kushan, Turkic Khaganate, Arab Caliphate, Samanids, Karakhanids, Dashti Kipchak, Golden Horde, Abulkhair Khan, "Uzbek ulus"

**Received:** 30.12.24

**Accepted:** 01.01.25

**Published:** 03.01.25

**Abstract:** The article discusses the origin and ethnic history of the Uzbek people, their gradual formation from a clan-tribe into a nation-state, and the fact that the Uzbek people are an indigenous people directly connected from very ancient times to the historical homeland where they currently live.

## O'ZBEK XALQINING KELIB CHIQISH VA SHAKLLANISH TARIXI

**S. T. Zoyirov**

*o'qituvchi*

*Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi*  
*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** O'zbek, Amudaryo, Sirdaryo, Qang, Kushon, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Dashti Qipchoq, Oltin O'rda, Abulkayrxon, "O'zbek ulusi"

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek xalqining kelib chiqishi va etnik tarixi, uning urug'-qabila holatidan asta-sekin elat-xalq bo'lib shakllanishi, o'zbek xalqi hozirda yashab kelayotgan tarixiy ona zamin bilan juda qadim zamonlardan bevosita bog'liq tub yerli xalq ekanligi haqida so'z boradi.

## ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

**C. T. Зоиров**

*преподаватель*

*Ташкентский военно-академический лицей «Школа Темурбеков»*  
*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Узбек, Амударья, Сырдарья, Ханг, Кушан, Тюркский каганат,

**Аннотация:** В статье говорится о происхождении и этнической истории

Арабский халифат, Соманиды, Караханиды, Даши Кипчак, Золотая Орда, Абулхаирхан, «узбекская нация»

узбекского народа, его постепенном становлении из родоплеменного государства в нацию-нацию, а также о том, что узбекский народ является коренным народом, напрямую связанным с исторической родиной, откуда он проживает. очень древние времена.

Jahondagi boshqa xalqlar kabi o‘zbek xalqining kelib chiqishi ham uzoq tarixiy o‘tmishga borib taqaladi. O‘zbeklar bundan qariyib uch ming yil muqaddam hozirgi Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi vodiy va voha yerlarida shakillana boshladi.

Xalqlarning kelib chiqishi masalasida, ya’ni etnogenez va etnik tarixni o‘rganishda maxsus nazariy va ilmiy metodologik ishlanmalar borki, ularga asoslanmay turib, biror xalqning kelib chiqishi haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lish qiyin. Birinchidan, har bir xalq hozirda yashab turgan hududlari bilan azaldan bog‘liqidir. Dunyoda biror xalq yo‘qliki, o‘zining etnogenez bosqichida mintaqadagi boshqa etnik birliklar bilan aralashmagan bo‘lsa. Bu haqda O‘rta Osiyo xalqlari tarixinining bilimdoni prof. S.P.Toltov shunday degan edi: «Hozirgi zamon O‘rta Osiyo xalqlarining birontasi ham qadimgi etnik guruhlarga bevosita borib taqalmaydi. Aksincha, ularning shakllanishida, yerli xalqlar va tevarak-atrofdan ko‘chib kelgan xalqlar har xil nisbatda o‘z aksini topgan». Bundan o‘zbek xalqi ham mustasno emas. Shunday ekan, Movaraunnahr va qadimgi Xorazm hududlari azaliy vatani bo‘lgan o‘zbek xalqining ilk ajdodlari ikki til – turkiy va eroniy tillar turkumidagi qabila va elatlar bo‘lib, ularning uzoq yillar davomida aralashuvi, qorishuvi jarayonida o‘zbek elati xalq bo‘lib shakllandi. Demak, o‘zbek xalqi ikki xil tillarda so‘zlashuvchi ajdodlardan, ya’ni etnik birliklardan tarkib topgan.

O‘zbek etnogenezi mil. avv. I mingyillikning ikkinchi yarmi milodiy eraning boshlarida yangidan yangi turkiy qabilalarning bu zaminga kirib kelishi va mil. avv. III asrda qang‘uylar Yuechji, Kushon (mil. avv. I milodiy IV asr) davlatlarining tarkib topishi asosida rivojlanadi. Mahalliy aholining turkiylashish jarayoni Turk xoqonligi (VI-VIII asrlar) davrida sezilarli darajada jadallahadi, etnomadaniy rivojlanishning aktivlashishi oqibatida turk-sug‘d simbiozi yuz beradi. VIII asrda O‘rta Osiyoga arab va ajam xalqlarining kirib kelishi bu yerdagi etnik jarayonlarga katta ta’sir etmagan bo‘lsa-da, ammo ular bilan islom dinining kirib kelishi ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi aholining o‘troqlashuviga, yagona islomiy diniy e’tiqod asosida birlashuviga olib keldi. O‘zbek etnogenezi Movarounnahrda yirik turk davlati Qoraxoniylar davlati hukmronligi o‘rnatalishi bilan (XI asrning boshlari) bu jarayon jadallahib, G‘arbiy Qoraxoniylar davrida uzil-kesil shakllanadi (X1-XII asrlar) [1].

IX-XII asrlar Turkiston xalqlarining etnik tarixida ulkan davr bo‘ldi. Qadimda Turon yerlarida yashagan o‘troq dehqon, hunarmand va ko‘chmanchi chorvador aholining asrlar davomida yaqindan olib borgan o‘zaro iqtisodiy va etnik aloqalari natijasida bu ulkan hududda

dastavval qadimiy yozma manbalarda Sug‘d, Xorazm, Farg‘ona, Shak va Toxar nomlari ostida tilga olingan qator voha xalqlari tashkil topadi. Ular sharqiy eroniy tillarga mansub sug‘diy, xorazmiy, shak va toxar tillarida so‘zlashardilar. Bu xalqlardan janubda forsiyzabon ajam xalqi, shimolda esa turkiy tilda so‘zlashuvchi chorvador qabilalar yashar edilar. Shu boisdan bu diyor qadim zamonlardayoq turkiy va forsiyzabon nufuslarning doimiy muloqot maskaniga aylanib, uning tub joyli aholisi shimoldan turkiy tilda so‘zlashuvchi qabilalarning, janubdan esa forsiyzabon xalqyaarning kuchli ta’siri ostida istiqomat qilardi.

XI asrda Movarounnahrda Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi bilan qarluq, o‘g‘uz, chigil, yag‘mo va boshqa turkiy qabila va urug‘larning Shosh, Farg‘ona va boshqa viloyatlarda yashovchi turkiy aholi bilan birikib, o‘troq hayotga ko‘chish jarayoni jadallahadi. O‘troq dehqon va hunarmand aholi bilan aralashib, dehqonchilik va shahar madaniyatining boy tajribasi va an’analari o‘zlashtiriladi. Turkiy mupgarak til va xalq og‘zaki eposiga asoslangan badiiy adabiyot yuzaga keldi. Natijada turkiy tilda so‘zlashuvchi aholi Movarounnahrning asosiy nufuslaridan biriga aylandi.

Shunday qilib, asrlar osha Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda sodir bo‘lgan o‘ta murakkab siyosiy vaziyatda muttasil davom etgan etnik jarayonlarning oqibati tufayli IX-XII asrlarda o‘zbek xalki tashkil topdi. Bu xalqning nomi sharifi uning o‘zidan ancha-muncha yosh bo‘lsa ham, u qadimgi Turonning ikki tilda so‘zlashuvchi o‘troq dehqon va hunarmand hamda chorvador aholisining bevosita merosxo‘ri edi. Asrlar davomida qardosh xalqlar bir o‘lkada yonma-yon yashash, o‘zaro jadal iqtisodiy va madaniy munosabatlar, tashqi dushmanlarga qarshi birlashib yelkama-yelka turib kurashish uning etnik va til jihatdan aralashishiga va chatishishiga olib keldi. Bu ikki tilda so‘zlashuvchi xalq bir ota-onaning egizak farzandlari bo‘lib, urf-odat, kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or, san’at, musiqa va badiiy adabiyot sohasida mushtarak moddiy va ma’naviy madaniyatni yaratdi. Uning bu qadimiy madaniy merosi jahon xalqlari madaniyati xazinasiga katta hissa bo‘lib qo‘sildi.

Movarounnahr Somoniylar davrida, sharqda iqtisodiy va madaniy jihatdan eng taraqqiy etgan hudud edi. Bu hududning shahar va qishloqlari obod bo‘lgan. Jamiatning hamma tomonlarida islom dini va shariat qoidalari hukm surgan. Movarounnahrga kirib kelgan Qoraxoniylar shu yetuk madaniyatga egalik qilib, uni davom ettiradilar. Ko‘chib kelgan qabilalar yarim ko‘chmanchi va yarim o‘troq etnik guruhlar bo‘lib, ular chorvachilik bilan bir vaqtida dehqonchilik bilan ham shug‘llanadilar. Keyinchalik bularning ko‘pchiligi o‘troqlashib, shahar va qishloqlarda turg‘un aholi hayotiga moslashib boradilar. [2]

IX-XII asrlarda o‘zbek xalqi shakllandi. Uning asosini o‘lkamizda tarixan yashab kelgan ziroatkor va chorvador aholi tashkil etdi . Aynan shu bosqichda barcha etnik omillar: hududiy

birlik, madaniy, til, tarixiy taqdir birligi, siyosiy uyushma, din birligi va o‘zlikni anglash birligi yuz beradi. Biroq yurtimiz aholisi XVI asrgacha o‘zbeklar deb atalmadi.

XV asrning oxiri XVI asr boshlarida shakllangan turk etnik birlik tarkibiga dasht o‘zbeklari nomini olgan yangi etnik massa Dashti qipchoq cho‘llaridan kelib qo‘shiladi. Ular shakllangan turk etnik birlik tarkibiga hech bir yangilik kiritmadi, faqat ular hozirgi O‘zbekistonning janubiy viloyatlariga (Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo) oz miqdorda etnomadaniy ta’sirini o‘tkazdi. Ammo, ular kelgunicha shakllangan turk xalqi, ulardan «o‘zbek» etnonimini oldi.

Sirdaryoning quyi oqimi va Balxash ko‘lidan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan hudud XI asrdan boshlab Dashti qipchoq deb atalgan. Bu atamani dastlab Nosiri Xusrav (1003 -1088) qo‘llagan. Shundan boshlab, Dashti qipchoq atamasi arab va fors tillaridagi asarlarda uchraydi. 1236-yili Dashti qipchoqni Chingizzxonning nabirasi Botuxon egalladi va o‘sha ulkan mamlakatda tarixda Jo‘ji ulusi nomi bilan mashhur bo‘lgan Oltin O‘rda davlati tashkil topdi. XIV asrning boshlarida Jo‘ji ulusi ikki qismga bo‘linib ketdi. Uning sharqiy qismi “O‘zbeklar mamlakati”, aholisi esa “O‘zbeklar” deb atala boshlandi. XV asrning 20-yillaridan boshlab Sharqiy Dashti qipchoqni asta-sekin Abulxayirxon egalladi va u bu hududda “o‘zbek ulusi” degan davlatga asos soldi. Abulxayirxon vafotidan (1468) keyin Sharqiy Dashti qipchoqda uning avlodи hukmronlik qildi. Dashti qiochoqning asosiy aholisi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lib, chorvachilik bilan shug‘ullangan[3].

Qayd etish lozimki, tilga olingan Dashti Qipchoq o‘zbeklari o‘zaro urug‘-qabilachilik munosabatlarida kun kechirib, asosan ko‘chmanchi chorvachilik turmush tarzida yashashar edi. Ularning xo‘jalik xususiyatlari O‘rta Osiyoning tub-joy turg‘un aholisi hayotidan tubdan farq qilgan. Lekin ular Movarounnahr va Xorazm diyorlariga kelib o‘rnashgandan keyin, mahalliy xalq bilan omuxtalashib yangi o‘zbek millatini shakllantirishgan.

O‘zbek xalqining kelib chiqishini uning etnik nomi bilan bog‘lash asossiz ekanligi, odatda xalq tarixi uning nomidan qadimiy ekanligi masalasi, ba’zida etnosni shakllantiruvchi obyektiv omillarning yakunlovchi bo‘g‘ini nafaqat siyosiy davlat uyushmasi, balki etnosga xos umumiy jonli xalq tili bo‘lishi ham mumkinligi ishda ilmiy isbotini topgan. Ammo uning davriy sanasi haqida hamon tilshunos olimlarimiz bir to‘xtamga kelib olishganlari yo‘q. Bu masalada qo‘srimcha asosli izlanishlar olib borilishini, gumanitar fan vakillari (tarix, arxeologiya, etnologiya, sotsiologiya, falsafa, tilshunoslik va boshqalar) o‘rtasida ilmiy hamkorlikni hayot taqozo etadi.

Bir necha asrlar davomida o‘zbek xalqi ajdodlarining boy xo‘jalik an’analari shakllanadi. Movarounnahr va unga tutash viloyatlarda aholining katta qismi o‘troq dehqonchilik, xalq hunarmandchiligi va chorvachilik xo‘jaliklari bilan shug‘ullanadilar. Bu zaminda asosan uchta tarixiy-madaniy xo‘jalik komplekslari tarkib topadi: takroriy sug‘orma dehqonchilikka asoslangan

oazislarning o‘troq aholi xo‘jaligi, chorvachilik va dehqonchilik xo‘jaliklarini parallel olib boruvchi tog‘oldi rayonlarning yarim o‘troq aholi xo‘jaligi va ko‘chmanchi chorvadorlar xo‘jaligi.

Qadimdan ko‘chmanchi chorvadorlar asta-sekin o‘troq hayotga o‘tib, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishga ko‘nikib boradilar, ularning hayoti esa kompleks xarakter tusini oladi. O‘zbeklarning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi tufayli bu xo‘jalik tiplarida katta o‘zgarishlar yuz beradi, bu o‘zgarishlar ayniqsa G‘arbiy Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davlati davrida yaqqol ko‘zga tashlanadi. XIX asrning oxiri XX asr boshlaridan o‘zbek xalqining qadimdan davom etib kelayotgan yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchilik xo‘jaliklari komplekslari yo‘qoladi, o‘zbek jamiyatining katta qismi shahar turmush tarziga va sanoatlashgan iqtisodiyotga o‘tadi.

O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan o‘zbek xalqining ajdodlari o‘zlarining ko‘p asrlik tarixi davomida ko‘pgina polietnik davlatlar, shu jumladan Axomoniylar imperiyasi, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya podsholigi, Kushonlar sultanati, Qang‘ davlati, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlatlari, Chingizxon imperiyasi, Amir Temur davlati, Shayboniylar, Ashtarkoniylar davlatlari, Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari, Rossiya imperiyasi va SSSR tarkibida bo‘lib keldilar. Ushbu mintaqqa xalqlari qadimdan va hozirgi kunda ham xo‘jalik turmush tarzi , til, madaniyat va diniy dunyosi bilan ham bir-birlari bilan o‘zaro bog‘liqidir. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari mutlaqo yangi siyosiy voqealar, o‘zbeklarning iqtisodiy xo‘jalik va etnomadaniy hayoti, an’anaviy madaniyati va urf-odatlariga kirib kelgan o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. O‘zbek xalqi bu o‘zgarishlar davomida jahon madaniyati bilan hamohanglikda rivojlanib, sivilizatsiya taraqqiyotida o‘z o‘rnini topdi. XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududida Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligiga bo‘lingan holda kirib keldi. Bunday holat uzoq asrlar davomida bir xalq bo‘lib yashab kelgan mintaqqa aholisi hayotida etnik birlikni ikkinchi darajaga surib yuborgan edi. 1924-yilda O‘zbekiston SSRning tashkil topishi ko‘pchilik o‘zbeklarni bitta respublikada to‘planishiga olib keldi. Butun bir millat o‘zbek nomi bilan yuritiladigan bo‘ldi.

XX asrda yuz bergen tubdan qayta qurishlar jamiyatda sezilarli ijobjiy o‘zgarishlarga olib keldi, etnomadaniy muhitni boyitdi, o‘rta va oliy ta’lim paydo bo‘ldi, ilm-fan, dunyoviy adabiyot, musiqa va san’at rivojlandi. Ammo bu tub o‘zgarishlar milliy qadriyatlar va madaniyatni tarixiy ildizlaridan yilib olib, mahalliy aholini ruslashtirish siyosati bilan birga olib borildi. Iqtisodiyotda an’anaviy rivojlanishga zid tendensiyalar, ya’ni xo‘jalikni yangi texnikaviy asosda rivojlanishi, xo‘jalikning sanoat bazasini mustahkamlash va fan yutuqlarini xo‘jalikka joriy etishlar ko‘zga tashlandi. Ammo shu bilan birga, xo‘jalikni tashkil etish va boshqarishda boy tajriba shakllaridan foydalanishni inkor etish salbiy oqibatlarga, ya’ni paxta yakkahokimligi va ekologik muhitning buzilishiga, yerlar tuzining ko‘tarilishiga, botqoqliklarga aylanishiga olib keldi. Og‘ir sanoat

tarmoqlarini rivojlantirish mahalliy xomashyolar bazasida qurilmadi, og‘ir sanoat mahsulotlari Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilmadi, shu bois sanoat milliy kadrlarni tayyorlash bilan birga olib borilmadi, aksincha, xalq hunarmandchiligi ildiziga bolta urildi. [1]

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida o‘zbek xalqi hayotida tub o‘zgarishlar yuz berdi, 31-avgust 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi mustaqil suveren davlat deb e’lon qilindi. Mustaqil O‘zbekiston uchun iqtisodiyotda shunchalar ko‘p va murakkab muammolar meros bo‘lib qoldiki, suveren O‘zbekiston, davlatning ichki va tashqi siyosati ana shu muammolarni yechimini topishga qaratilgan. Har bir O‘zbekiston fuqarosi buni yaxshi bilmog‘i va bu yo‘lda mustaqil ona Vatan uchun ongli xizmat qilmog‘i kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahmadali Asqarov, O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi, T .“O‘zbekiston”, 2015. 578-582
2. Karim Shoniyoзов, O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni, T. “Sharq”, 2001.435
3. Bo‘riboy Ahmedov, Tarixdan saboqlar, T. “O‘qituvchi”, 1994. 415